

## 2018 yil yanvar – avgust oylarida amalga oshirilgan qurilish ishlari


2018 yilning yanvar -avgust oylarida Samarqand viloyatida 1843,2 mlrd. so'mlik qurilish montaj ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan 2017 yilning shu davriga nisbatan 104,1 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish montaj ishlari hajmi 33,1 mlrd. so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati 135,2 foizni tashkil qildi.



Jami qurilish ishlarining hajmida kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish montaj ishlari hajmi 48,5 foizni tashkil etdi. Kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar asosan sotish uchun mo'ljallangan uy-joylarni qurish, avtomobil yo'llarini ta'mirlash, yangi qurilish, rekonstruksiya, ijtimoiy soha ob'yektlari (maktablar, maktabgacha ta'lim muassasalari), namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan uy-joylar qurilishida o'z faoliyatlarini amalga oshirmoqda.

## Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari



Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 1820,6 mlrd. so'mlik qurilish montaj ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 98,8 foizini tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning o'sish sur'atiga nisbatan 50,2 bandga ko'payib, 130,2 foizni tashkil qildi. Mulkchilikning davlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 22,6 mlrd. so'mlik qurilish montaj ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish montaj ishlari hajmidagi ulushi 1,2 foizini tashkil qildi.

## 2018 yilning yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



2018 yilning yanvar – avgust oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarida nodavlat mulkchilikda bino va inshootlar qurilishining ulushi 1527,1 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 132,8 foizni tashkil qildi. Davlat mulkchiligidagi ulush esa, 1,9 mlrd. so'mni tashkil qilib, bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 6,9 foizni tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarida nodavlat mulkchilikdagi fuqarolik qurilish ob'yektlarining ulushi 189,8 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,2 foizni, davlat mulkchiligidagi ulush esa, 17,0 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 98,8 foizni tashkil qildi.

Shuningdek, ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining ulushi 103,7 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 146,0 foizni, davlat mulkchiligidagi ulush esa, 3,7 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 264,3 foizni tashkil qildi.